

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI
O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI TARIXI BO‘LIMI**

PORSO SHAMSIYEV
tavalludining 125 yilligiga bag‘ishlangan

respublika ilmiy anjumani materiallari

2022-yil 27-aprel

II KITOB

“Adast poligraf”
TOSHKENT -2022

Porso Shamsiyev tavalludining 125 yilligiga bag'ishlangan respublika ilmiy anjuman materiallari to'plami / – Toshkent. – 2022. – 144 b

Ushbu to'plam O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi bo'limi hamda Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi hamkorligida 2022-yil 27-aprel kuni o'tkazilgan yirik matnshunos va manbashunos olim, fan arbobi Porso Shamsiyev tavalludining 125 yilligiga bag'ishlangan respublika ilmiy anjumani materiallaridan tashkil topgan.

To'plamdan filolog mutaxassislar, jumladan, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari, doktorantlar, tayanch doktorantlar, magistratura va bakalavriat bosqichi talabalari foydalanishlari mumkin.

(Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflarning o'zlari mas'uldirlar)

Tahrir hay'ati:

Maqsud Asadov, f.f.d., bo'lim mudiri
Ibrohim Haqqulov, f.f.d., bosh ilmiy hodim
Qodirjon Ergashev, f.f.n., katta ilmiy xodim
Sayfiddin Rafiddinov, f.f.n., katta ilmiy xodim
Burobiya Rajabova, f.f.n., yetakchi ilmiy xodim
Sirdaryoxon O'tanova, f.f.n., katta ilmiy xodim
Zulayho Rahmonova, f.f.b.f.d, katta ilmiy xodim

To'plab, nashrga tayyorlovchilar:

Nasiba Jo'raqulova
Dilmurod Asqarov

“SADDI ISKANDARIY” DOSTONIDA HIMMATNING POETIK TALQINI

Ilyos ISMOILOV,

ToshDO‘TAU doktoranti.

ismoilov_iles@mail.ru

Annotatsiya

Maqolada Alisher Navoiyning himmat to‘g‘risidagi nazariy qarashlari shoh va gado obrazlari misolida tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: himmat, shoh, gado, konsepsiya, mulohaza, hikoyat, hikmat.

Annotation

In this article Alisher Navoi’s Theoretical outlooks about generosity is analised by the example of shah and beggar.

Key words: generosity, shah, beggar, sonception, meditation, tale, wise.

Mavjud tadqiqotlarda “Saddi Iskandariy” dostonining e‘tibordan chetda qolgan muhim jihatlaridan biri Iskandar timsolining ma’naviy qiyofasi dostonning har bir qismida – “Sarguzasht”, “Mulohaza”, “Hikoyat”, “Hikmat”larda tasvirlab borilishini inobatga olmaslikdir. Aslida, Navoiy tasvirlagan Iskandar obrazini to‘liq tasavvur etish uchun har bir bobning to‘rt qismini yaxlit holda olib qarash zarur. Alisher Navoiy “Iskandar timsoli tasviri orqali insoniy qusurlar, intilish va armonlar fojiasi va ziddiyatlarni ochib beradi. Shu zaminda o‘zining qarashlarini izchil bayon etib, agar shohning qalbida adl-u insof, ilm-u hikmat jo‘sh ura, u jahongir bo‘lsa ham, darvesh (vali) martabasiga muyassar bo‘lishi mumkin, degan konsepsiyasini qadam-baqadam isbotlab boradi”¹.

Alisher Navoiy asarlarida (lirikasida ham) ko‘pincha sahovat, karam, himmat, futuvvat tushunchalarini yonma-yon qo‘llaydi. Ular mazmunan yaqin bo‘lsa-da, aynan emas. Bu borada, ayniqsa, saxovat va himmatni chalkashtirmaslik kerak. “Himmat ahlig‘adur saxovat ixtisosi va bu ikki sharif sifat *shohi valoyat xosi* (ta’kid bizniki – I.I). Saxovat odamig‘a badandur va *himmat anga ruh* va

¹ Комилов Н. Хизр чашмаси. – Т.: Маънавият, 2005. – Б. 125.

himmat ahlidin olamda yuz ming futuh... Himmat ahlig'a agarchi biyik kavkabadur, ammo saxovatg'a necha martabadur..."¹² Izohdan himmatning ko'proq mohiyatga oid ekanligi ma'lum bo'lmoqda. Himmat ahli uchun g'ino bilan faqir, kuloch bilan umoch birdek. Ular bu kabi tafovutlar zohiran ikkilik, mohiyatan esa bir ekanidan voqif, shu bois martabada saxovatpeshalardan ulug' hisoblanadilar.

Navoiy mazkur haqiqatning poetik ifodasi uchun himmat egasini qushga o'xshatadi, bunda etarli asos bor. Sharq adabiyotida inson va uning ruhini qush ramziy-majoziy obrazi orqali tasvirlash an'anasi mavjud (Navoiy "Mahbub ul-qulub"da himmatni ruhga tashbih qiladi). Kishi himmati qancha buyuk bo'lsa, shu qadar baland parvoz etayotgan qush. Baland parvozli qushga ovchining o'qi etmaganidek, yuksak himmat egasining dunyo tashvishlari, jahon ahlidan tashvishi shuncha oz. Basharti, inson muntazam ko'kka intiluvchi qush deb tasavvur etilsa, dunyo – unga qo'yilgan tuzoq, hoyu havaslar esa tuzoq sari etaklovchi don-dundir. Oyog'i bandi, bo'ynida yuki bor qush ucha olmaganidek, inson tuzoqdan – dunyodan, yukdan – hoyu havaslaridan xalos bo'lish jasorati, azmu shijoatiga ega bo'lsagina ruhi ozod makon sari erkin parvoz etadi.

Himmatning ulug'ligi mohiyatni – vahdatni anglash bilan bog'liq, chunki faqat dunyoning baqosizligidan voqif insonning himmati har qanday riyodan xoli, yuksak bo'la oladi.

Magar Haq yeturgay bu ogohlik

Ki, faqr istagay el, qo'yib shohlik. (72)

Mohiyatdan ogoh inson shohlik emas, faqr – gadolik istaydi. Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonining dastlabki boblarida tasvirlangan shahzoda Iskandar mana shu haqiqatdan voqif (ilm-ul yaqin darajada bo'lsa-da). Navoiy bunga XV faslda *barcha ilmlarda mohir bo'ldi, atosi margini (jasad) ko'rgan mahal dunyoni tark etguday bo'ldi* deb ishora qiladi. Demak, Iskandarda himmat sifati bor, biroq muallif uni oshkor qilmaydi, u hali yashirin.

² Navoiy Алишер. Махбуб ул-кулуб. Т.АТ. IX жилд. – Т.: Гафур Фулом НМИУ, 2011. – Б. 507.

Himmat – mardlikdir. Bu qo‘lidagi narsani o‘zgaga berishgina emas, balki dunyoning baqosizligini anglash orqali undan ongli voz kechish va buni bo‘yinga ola bilish mardligidir. Himmat so‘zining ma’no qatlami ko‘p: niyat, urinish¹, sahovat, kuchli iroda, azmu shijoat, biror ishga qattiq jazm qilish, futuvvat²; sa’y-harakat, muruvvat, javonmardlik kabi³. Mazkur ma’nolar jasorat tushunchasida mujassam, ammo ulardan biri ma’lum matn ichida ustun bo‘lishi mumkin. Chunonchi, “Saddi Iskandariy” dostoni asosiy qismining II bobida himmat tushunchasi *kechish* ma’nosida qo‘llangan bo‘lib, ikki narsaga tashbih qilinadi:

- 1) kimyo;
- 2) humoy (qush).

Himmatning kimyoga o‘xshashligi shundaki, kimyo yordamida eritmadan keraksiz moddalar chiqarib tashlanaib, tarkibdagi sof, eng qimmatbaho modda ajratib olinadi; dunyo o‘tkinchi, himmat esa (dunyoning har qanday matohidan kecha olish jur’ati bo‘lgani uchun) xuddi kimyo kabi insonni foniyl narsalarga bo‘lgan istaklardan poklovchi xulqdir. Himmat vujud kimyosi sifatida botin musaffoligiga erishtirgach, ortiqcha yuk va qaydlardan qutilgan ruh balandparvoz bo‘ladi. Kimyo ilmini bilganni boy deyishgan, chunki u oltin bo‘lmagan narsalarni oltinga aylantira olgan. Himmatli esa basirat ko‘zlari bilan kerak-nokerakni, foniyl va boqiy narsalarni farqlaydi. Zohirbinlarga aziz narsalardan voz kechib, mangulikka dahldor narsalarga egalik qilishi – uning haqiqatda g‘aniyl zot ekanligini ko‘rsatadi. Demak, himmatli odam deyilganda orif nazarda tutiladi, tabiatida himmat – oriflik fazilati bo‘lgan inson esa dunyo qaydlaridan ustundir.

E’tibor berish kerakki, himmat va tajarrud boshqa-boshqa tushunchalar. Himmat oriflik, ya’ni mohiyatni anglash tufayli yuzaga keladigan baxsh eta olish sifati. O‘ziniki bo‘lishi mumkin bo‘lgan narsaning bahridan o‘ta olish, shuningdek, komillikni qasd qilib butun ruhiyl quvvatlarini yorga yo‘naltira olish

¹ Шамсиев П., Иброхимов С. Навоий асарлари луғати. – Т.: Фафур Фулом НМИУ, 1972. – Б. 773.

² Комилов Н. Хизр чашмаси. – Т.: Маънавият, 2005. – Б. 139.

³ Исоқов Ё. Нақшбандия таълимоти ва ўзбек адабиёти. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 2002. – Б. 82.

jur'ati. Tajarrud bo'lsa Haqdan o'zga narsalardan voz kechish, xalos bo'lish sifatidir¹.

Bobdagi hikoya sarlavhasida nozik so'z o'yini orqali himmat mazmuniga aniq ishora qilingan: *Iskandar bila ul gadoliq ixtiyor etgan podsho...* – avval podsho edi, so'ng gadolikni ixtiyor qilgan odam; ...*balki filhaqiqat, podsholiqqa etgan gado* – aksincha, avvallar gado bo'lib, so'ngra shohlikka etgan inson. Navoiy shu tariqa dastlabki hikoyatning sarlavhasidayoq dunyo mulkini egallash niyatidagi shohlik, aslida, gadolik, aksincha, o'tkinchi dunyo mulkidan kechib, haqiqat olamiga talabgorlik – chinakam shohlik ekanligini ta'kidlanmoqda. Bu – hikoyagina emas, butun bob va butun asar mazmunini aks ettiruvchi konsepsiyadir.

“Mulohaza”da bo'lgani kabi “Hikoya”da ham suratga emas siyratga qarash lozimligi ta'kidlanmoqda. Himmatli odam haqidagi nazariy mulohazalar gado qiyofasida jonlantirilmoqda. Iskandar rag'bat ko'rsatayotgan vujudiy intilishlarni, boylik, mol-mulk, toj-taxtni gado allaqachon tark etgan, ularning suratlar ekanligidan boxabar². Ikkinchidan, gado ko'tarib kelgan ikki suyak shaklga emas, ma'noga qarash lozimligini uqtiruvchi kuchli ritorik so'roq edi. Chunki tiriklikda shoh – gado, boy – kambag'al tarzda farqlashlar shaklga ko'radir. Vafot etgan shoh va gadoning farqi qolmagach, dunyoda shoh – gado deb tafovutlash mutlaqo zohirbinlikdir.

Navoiy Shoh va gado munosabati borasida ustozlari bilan hamfikr. Qolaversa, dunyo taloshi, insoniy urushlar – arziyas, kichik; botiniy savosh, nafsga qarshi kurash – og'ir, katta urush. Botinda kechadigan eng muhim, hal qiluvchi jangda – nafsga qarshi kurashda iskandarlar mag'lub-u faqirlar g'olibdir. Sharqning ko'pgina mutafakkirlari shoh va darvesh munosabatiga mana shu nuqtayi nazardan yondashgan.

Navoiy buni rad etmagan holda o'zining mo'tadil konsepsiyasini taqdim etadi va uni Iskandar misolida tasvirlab berdi. “Inson faoliyatining boshqa sohalari bilan bir qatorda badiiy ijodga taalluqli prinsiplardan yana biri e'tidol yoki

¹ Хаққулов И. Навоийга қайтиш. – Т.: Фан, 2011. – Б. 135 – 136.

² Н. Ғаффоров ҳам ўз тадқиқотида ҳикоядаги гадо образи маърифат талабида юрган рамзий образ эканлигини қайд этади. Қаранг: Ғаффоров Н. Алишер Навоий “Хамса”сида сўфийлар тимсоли. Фил., фан., номз. дисс... – Т.: 1999. – Б. 71.

mo'tadillikdir. Bu – ikki qarama-qarshilikning qoq o'rtasi bo'lib, go'zallik va etuklikning eng oliy nuqtasidir, boshqacha qilib aytganda, ortiqchalik ham, kamchilik ham yo'q holat... Navoiy mana shu e'tidol prinsipini o'z asarlarining badiiy tomoniga ham tatbiq qildi. Navoiy asarlarida badiiy vositalar kam ham emas, ortiqcha ham emas”¹. Ya'ni davlat boshlig'i kichik jangda ham, katta jangda ham g'olib bo'lsin, ana shunda zohir va botin orasidagi tafovvut yo'qoladi. Shunday odamgina odil podshoh bo'lishga loyiq, o'ziga adolat qila olmagan o'zgalar orasida ham adolat o'rnata olmaydi, demoqchi Navoiy.

“Hikmat”da Iskandarning Arastuga bergan savollari ham mazkur haqiqatni tasdiqlaydi:

- 1) maqsudg'a qaysi maqom yaqinroq?
- 2) ul maqom sari ne nav' xirom munosibroq?

Dastlabki savolda ko'zda tutilgan *maqsud* – Haq dargohi, *maqom* esa insondagi sifatlar va ular uyg'unlashgan ruhiy darajadir. Iskandar savollarini shunday tushunish mumkin:

- 1) *Haq dargohiga qanday axloqli kishi munosib?*
- 2) *bunday axloqqa sohib bo'lish uchun qanday yo'l tutish lozim?*

Arastuning javobi:

- 1) xalqdan o'zni fard aylamak, fano ko'yi yo'linda gard aylamak;
- 2) ul kishikim tavongardurur, anga xayr ko'prak muyassardurur.

Arastuning javoblarini shunday tushunish mumkin:

1) *asl maqsaddan chalg'ituvchi har qanday narsadan qo'l tortish va butun diqqatni Haq tomon qaratish, ya'ni faqr (o'zlikdan kechish) sifatiga ega bo'lish va faqrlik yo'lini tutish;*

2) *tavongar – davlati ko'p, imkoniyatlari keng kishi – maqsadga etishda qilingan ishning ahamiyati katta bo'lgani tufayli savob ishlarni ko'proq qilish orqali visoldan umid qilsa bo'ladi.*

Aslida, Arastuning bergan ikki javobi mazmunan bir xil. Har ikki yo'lning sharti – o'zlikni engish, maqsadi – visoldan bahramandlik. “... Boyazid dediki,

¹ Рустамов А. Навоийнинг бадий маҳорати. – Т.: Гафур Ғулом номидаги НМИУ, 1979. – Б. 27 – 28.

Alloh taoloni tush ko‘rdum. So‘rdimki, bor Xudoyo, yo‘l sanga ne nav‘dur? Dediki, o‘zingdin o‘ttung – etting”¹. Har qanday dunyo shug‘li bilan band bo‘lgan odam harchand urinmasin, faqirchalik xayrga ega bo‘la olmaydi. Ammo bu savobli ishdan to‘xtash kerak, faqrdan boshqasi bekor degani emas. Sidqi dildan qilingan har qanday to‘g‘ri ish ibodat ekanligi hisobga olinsa, dunyo ishlari ma‘nosiz emasligi oydinlashadi. Demak, manzil bir, yo‘l turfa. Iskandar toifasidagi kishilarga ikkinchi yo‘l mos va butun asar davomida Navoiyning Iskandari mana shu yo‘lni tutadi. Ko‘rinadiki, “Saddi Iskandariy” dostonining asosiy qismidagi har boblarning har to‘rt qisimi asar mazmunini ochishda, falsafiy qamrovini to‘la idrok qilishda muhim kompozision – poetik vazifa bajaradi va Iskandar obrazining ma‘naviy qiyofasini yaxlit tasavvur qilishda munosib o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Комилов Н. Хизр чашмаси. – Т.: Маънавият, 2005. – Б. 125.
2. Навоий Алишер. Махбуб ул-кулуб. ТАТ. IX жилд. – Т.: Гафур Гулом НМИУ, 2011. – Б. 507.
3. Шамсиев П., Иброҳимов С. Навоий асарлари луғати. – Т.: Гафур Гулом НМИУ, 1972. – Б. 773.
4. Исҳоқов Ё. Нақшбандия таълимоти ва ўзбек адабиёти. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 2002. – Б. 82.
5. Ҳаққулов И. Навоийга қайтиш. – Т.: Фан, 2011. – Б. 135 – 136.
6. Гаффоров Н. Алишер Навоий “Хамса”сида сўфийлар тимсоли. Фил., фан., номз. дисс... – Т.: 1999. – Б. 71.
7. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Т.: Гафур Гулом номидаги НМИУ, 1979. – Б. 27 – 28.
8. Навоий Алишер. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. X ж. – Т.: Гафур Гулом номидаги НМИУ, 2011. – Б. 73.

¹ Навоий Алишер. Насойим ул-муҳаббат. ТАТ. X ж. – Т.: Гафур Гулом номидаги НМИУ, 2011. – Б. 73.

MUNDARIJA

MUMTOZ ADABIYOT, ADABIYOTSHUNOSLIK

Maqsud Asadov. “Maoniy ahlining sohibqironi” xususida.....	3
Usmon Qobilov. O‘zbek adabiyotida me’roj mavzusi va ma’naviy bedorlik talqini.....	8
Zebo Qobilova, Namuna Tursunova. Muqimiyning Amiriyga bir tatabbusi xususida	13
Zebo Qobilova, Musharraf Imomaliyeva. Amiriyning orifona g‘azallari.....	20
Bəxtiyat Məmmədov. Zahirəddin Məhəmməd Babur yaradıcılığı ümumtürk mədəniyyətinin nadir hadisəsi kimi	26
Dilrabo Kazakbayeva. “Noma’lum muallifning” tarji’bandi.....	32
Ilyos Ismoilov. “Saddi Iskandariy” dostonida himmatning poetik talqini.....	43
Sanobar Abdurahmanova, Rayhonoy G‘oyibboyeva. “Holoti pahlavon Muhammad” asaridagi she’rlarning mavzu ko‘lami.....	49
Qutbiddin Dehqonov. “Alkofiya” va uning ba’zi qo‘lyozmalari tavsifi.....	59
Ulug‘bek Sanaqulov. Alisher Navoiy she’riyatida Farhod va Majnun timsollari talqini.....	65
Nasiba Jo‘raqulova. Lirik qahramon, mohiyat hamda ifoda uyg‘unligi.....	71
Yulduz Abdulhakimova. Alisher Navoiy va Muhammad Fuzuliy “Layli va Majnun”: dostonlar syujeti bilan bog‘liq mushtarak va farqli jihatlar.....	79
Shahnoza Jumanova. Mumtoz adabiyotda peyzaj unsurlari.....	87
Musharraf Imomaliyeva. Amiriy ijodida Xizr obrazining badiiy vazifalari.....	94
Nilufar Oymatova. Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarni Alisher Navoiy asarlari matnini tahlil va talqin qilishga o‘rgatishning zamonaviy usullari.....	103
Tozagul Dusanova. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asaridagi fardlarning badiiyati.....	110

Lochinbek Ahmadaliyev. “Tazkirai Qayyumiy” Amiriy fiqrasi (№ 40) dagi she’rlarning matniy-qiyosiy tadqiqi.....	117
Aziza Omonboyeva. Lison ut-tayrda zuhd maqomi talqini.....	123
Munisa Matkarimova. Tavba – komillik yo‘lidagi dastlabki qadam sifatida....	130
Sarvinoz Axmadqulova. “Farhod va Shirin” dostonida Mehinbonu obrazi talqini.....	137

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI
O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI TARIXI BO‘LIMI**

PORSO SHAMSIYEV
tavalludining 125 yilligiga bag‘ishlangan

respublika ilmiy anjumani materiallari

2022-yil 27-aprel

Muharrir: M. Sayfullayev
Badiiy muharrir: F. Zovirov
Sahifalovchi: U. Saidov

Nashriyot litsenziyasi № 3988. 14.09.2020
Bosishga ruxsat etildi 05.05.2022. Bichimi 60x84 1/16.
«Times New Roman» garniturasida. Ofset bosma usulida bosildi. Shartli
bosma tabog'i 33,6. Nashr bosma tabog'i 30.1. Adadi 100.
Buyurtma №18.

«ADAST POLIGRAF» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil:
Sirg'ali tumani, 7G-38, 3-uy, 14-xonadon
Tel.: 90 909 33 49.

QAYDLAR UCHUN